

## “MAXZAN UL-ASROR” VA “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONLARINING QIYOSIYI TAHLILI

*Tursunmurodov Shohruh Uralovich, GFA o‘qituvchisi*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EPICS “MAKHZAN UL-ASRAR” AND “HAYRAT UL-ABRAR”

*Tursunmuradov Shahrukh Uralovich, teacher of GFA*

### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭПОСОВ «МАХЗАН УЛ-АСРАР» И «ХАЙРАТ УЛ-АБРАР»

*Турсунмурадов Шахрух Уралович, преподаватель ГФА*

**Annotatsiya:** O‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy Ganjaviyning Jamol Kamol va Olimjon Bo‘riyev tomonidan tarjima qilingan “Maxzan ul-asror” dostoni va Alisher Navoiyining “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlar hozirgi o‘zbek adabiy tilimizga yaqin tarjimasi asosida qiyoslab o‘rganilgan emas. Biz bu maqolada shu xususida fikr yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** doston, hamd, na’t, munojot, maqolat, hikoyat, tarjima, tahlil.

**Abstract:** In Uzbek literary studies, Nizami Ganjavi’s epic “Makhzan ul-asror” translated by Jamal Kamal and Olimjon Boriyev and Alisher Navoi’s epic “Hayrat ul Abror” have not been comparatively studied based on the translation close to our current Uzbek literary language. We will talk about this in this article.

**Key words:** epic, praise, speech, prayer, article, story, translation, analysis.

**Аннотация:** В узбекском литературоведении сравнительно не изучены эпос Низами Гянджеви «Махзан ул-асрор» в переводе Джамала Камала и Олимжона Бориева и эпос Алишера Навои «Хайрат ул-аброр» на основе перевода, близкого к нашему нынешнему узбекскому литературному языку. Об этом мы поговорим в этой статье.

**Ключевые слова:** эпос, хвала, речь, молитва, статья, рассказ, перевод, анализ.

**KIRISH.** Mustaqillikka erishilgach, ming asrlik mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining asarlariga metodologik tomondan yangicha, to‘g‘ri baho berila boshlandi. Mustaqillikkacha sinfiylik prinsiplariga amal qilish talab etilishi natijasida ko‘p masalalar o‘zining haqqoniy va halol, tarixiy jihatdan to‘g‘ri talqini hamda yechimini topmagan edi. Ayniqsa, tasavvufiy she’rlar, dostonlarning uzviy qismi bo‘lgan hamd, na’t, munojot va

tasavvufiy, diniy boblari noto‘g‘ri talqin qilindi va ular adabiyotshunoslik masalalaridan chetda qolib ketdi. Ana shunday masalardan biri dostonlarning, ayniqsa, “Xamsa” turkumidagi dostonlarning o‘ziga xos diniy-tasavvufiy ruhdagi maqolat va hikoyatlaridir.

Maqolada Nizomiy Ganjaviy “Maxzan ul-asror” dostonining O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol va taniqli tarjimon Olimjon Bo‘riyev



[https://orcid.org/0009-0001-](https://orcid.org/0009-0001-2392-9045)

2392-9045

e-mail:

[shohruhtursunmurodov1994@gmail.com](mailto:shohruhtursunmurodov1994@gmail.com)

tomonidan amalga oshirilgan yangi tarjimalari bilan Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni qiyosiy o’rganilgan. Bu mavzuda o’zbek adabiyotida ko’plab tadqiqotlar bo’lsa-da, yangi tarjimalar bilan Navoiy dostonini qiyoslab keng miqyosda o’rganish adabiyotshunoslikning dolzarb sohalaridandir.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA.** Sharqda faqat nazmiy usulda yaratilgan maxsus didaktik she’riyat ham shakllangan. Aytaylik, o’zbek mumtoz she’riyatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy “Maxzan ul-asror”i asosida bitgan “Gulshan ul-asror”, Alisher Navoiyning “Xamsa”ga birlinchi asar sifatida kiritilgan “Hayrat ul-abror” dostonlari aynan o’zbek pandona (didaktik) she’riyatining yorqin namunalari hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida ma’naviy fazilatlarning hayotiy hikoya-tasvirlar, mantiqiy tahlil-xulosalar orqali berilishi:

- birinchidan, muallif nuqtayi nazarini tiniqlashadiradi, uning aynan qanday g’oyani ilgari surayotganini aniq bilib turasiz;
- ikkinchidan, bu ta’sirchanlikni oshiradi;
- uchinchidan, ko’tarilgan masala-muammolar bugun uchun ham o’z ahamiyati, ya’ni dolzarbligini yo’qotmaydi.

**MUHOKAMA.** Nizomiyning ta’siri o’zbek shoiri Navoiy ijodida qay darajada bo’lgan bo’lsa, Navoiy ta’siri Fuzuliy ijodida undan kam bo’lmagan. Shu jihatdan ham aytish mumkinki, u o’zbekning o’z shoiriga aylanib ketgan. XIV asr o’rtalarida Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni “Xusrav va Shirin”ni tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan bo’lsa, oradan bir asr o’tgach, Haydar Xorazmiy Xamsa asoschisining “Maxzan ul-asror” dostoniga javoban “Gulshan ul-asror” asarini yaratadi.

“Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) – Nizomiy “Xamsa”sining ilk dostoni bo’lib, u hijriy 572 – milodiy 1175/76-yilda yozib tugallangan. Bu haqda asar nihoyasida shoirning o’zi shunday yozadi:

Etsam agar oy sanasin oshkor,  
Kun yigirma to’rt-u avval bahor.  
Yil esa hijratdin o’tib ul zamон,  
Besh yuz-u yetmish iki erdi hamon.

“Maxzan ul-asror” mashhur mutasavvif adib Hakim Sanoiyning “Hadiyat ul-haqqa”

(“Haqiqat bog‘i”) dostoniga nazira tarzida bitilgan bo’lsa-da, u kabi xafif bahrida emas, balki sare’i musaddasi matviyi maqsur (mavquf) vazni (muftailun muftailun foilun – V V – \ – V V – \ – V – )da yaratilgan bo’lib, 2264 bayt (4528 misra)dan iborat. U ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy doston bo’lib, so’fiyona ruhdan xoli emas. Asar yagona syujet chizig‘iga ega emas. U 59 bob: 18 muqaddima, 20 maqolat va ularga ilova tarzida keltirilgan 20 hikoyat va xotimadan iborat.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni ham alohida syujet chizig‘iga ega emas, 3988 baytdan iborat bo’lib, 64 bob, 21 muqaddima, 20 maqolat, 20 hikoyat va xotimadan iborat.

“Maxzan ul-asror”da “Nomina birla Allohi rahmonir rahiym” 56 bayt, “Hayrat ul-abror”da “Bismillahir rohmanir rohiym” 51 bayt. “Hayrat ul-abror”da 84 baytli alohida hamd bobi bo’lib, “Maxzan...”da bu yo’q. “Maxzan”da ikki munojot – “Munojoti avval. Allohning g’azabi va undan qo’rqish” 40 bayt, Allohning avfi va in’omini so’rab” 22 bayt. “Hayrat”da 4ta munojot berilgan bo’lib, “Avvalg‘i munojot” 84 bayt, 2-munojot 37 bayt, 3-munojot 87 bayt, 4-munojot 38 baytdan iborat. Bular dan so’ng “Maxzan...”da “Rasuli akram vasfida” 27 baytli na’t, 56 baytli “Me’rojda” va jami 130 baytli 4ta salovot keltirilgan. “Hayrat ul-abror”da esa 5ta na’t keltirilgan.

“Maxzan”da Salovotlardan so’ng 30 baytli Malik Faxruddin Bahromshoh ibn Dovud madhi va undan keyin 36 baytli yer o’pib, ta’zim ado aylab aytgan madhi keltirilgan bo’lsa, “Hayrat”da 37 baytli Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy, 65 baytli Abdurahmon Jomiy madhi berilgan.

“Hayrat”da mavjud bo’lmagan “Maxzan”da 43 baytli “Bu nomaning maqomu va martabasi bayonida” sarlavhali bobda asarning mohiyati, uning boshqa asarlarga o’xshamasligi, boshqa asarlardan qo’shilmaganligi ta’kidlangan. Har ikki ijodkor keyingi bobni so’z fazilati va ta’rifiga bag’ishlagan. “Hayrat ul-abror”da 64 bayt, “Maxzan ul-asror”da 27 bayt. Undan keyingi boblar ham o’xshash bo’lib, Nizomiy 66 baytda “Mansurdan manzum so’zning afzalligi”ni, Navoiy esa 62 baytda “Bir necha so’z ul ma’nidakim, so’zdagi ta’ni jone dururkim, so’z qolibi onsiz qolibe durur jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli gazof noinsoflig‘ig‘a munsif bo’lmoq, balki o’z gazofiga

insof berib, alarning uzrini qo‘lmoq” haqida yozgan.

Undan so‘ng “Maxzan ul-asror”da 85 baytli “Tun ta’rifida”gi bob, “Hayrat ul-abror”da esa Sulton Husayn Boyqaro madhi, 40 baytli ko‘ngil ta’rifi berilgan. Bu boblardan so‘ng Nizomiy jami 220 baytli ikkita Hilvat va uning samarasiga bag‘ishlangan 4ta bob keltirgan. Navoiy esa, jami 243 baytli 3ta “Hayrat” nomli bob beradi. Nizomiyning dostonida mavjud bo‘lmagan, Navoiy o‘z dostonida piri murshidi Bahovuddin Naqshband madhiga bir bob bag‘ishlagan.

Keyingi boblardan boshlab har ikkala dostonda ham maqolatlar boshlanadi. Shuni ham aytishimiz lozimki, maqolatlarning nomlanishi, qo‘yilgan masalalar ikki dostonda bir-biriga unchalik mos emas. Masalan, Nizomiy dostonining birinchi maqolati “Odam yaratilishi” haqida bo‘lsa, Navoiy dostonida birinchi maqolat “Iyomon haqida”. “Maxzan”da ikkinchi maqolat “Insof, adolat himoyasida shohga pand-u nasihat” bo‘lsa, shunga o‘xhash maqolat Navoiy dostonida uchinchi maqolat bo‘lib, “Salotin bobida” deb nomlangan. “Hayrat”ning ikkinchi maqolati islom haqida. Nizomiy uchinchi maqolatni “olam havodisida” deb nomlangan.

**NATIJALAR.** Yigirma maqolatdan beshtasi, ya’ni to‘rtdan biri dunyoga bag‘ishlangani bejiz emas: “Dunyo hodisalari xususida” (3-maqolat), “Dunyo tashvishlaridan qutulish bayonida” (9-maqolat), “Dunyoning bevafoligi bayonida” (11-maqolat), “Tuproq manzili bo‘lmish dunyoga vido aytish” (12-maqolat), “Dunyoga ta’na-malomat yog‘dirish” (13-maqolat). Insonning yaratilishi, tabiat, fazilat va illatlari bilan esa o‘n uch maqolat – asarning teng yarmi bog‘liq deyish mumkin: “Odam Atoning yaratilishi xususida” (1-maqolat), “Keksalik vasfida” (5-maqolat), “Mavjudot e’tibori bayonida” (6-maqolat), “Odamiylikning butun xilqatlardan ustunligi” (7-maqolat), “Yaratilish bayonida” (8-maqolat), “Oxirzamon alomatlari bayonida” (10-maqolat), “G‘aflatga malomat yog‘dirish” (14-maqolat), “Hasadgo‘ylarga malomat yog‘dirish” (15-maqolat), “Maslak yo‘lida jadal olg‘a bosish bayonida” (16-maqolat), “Ibodat-u tajrid bayonida” (17-maqolat), “Munofiqlarga malomat yog‘dirish” (18-maqolat), “Oxirat ila yuzlashuv bayonida” (19-maqolat), “Zamondoshlarning beadabligi bayonida” (20-maqolat). Aslida qolgan barcha

boblar ham u yoki bu darajada inson bilan bog‘liq. Shoh-xalq-jamiyat-adolat masalalari ham dostonning tayanch qismlaridan hisoblanadi: “Insof, adolat himoyasida shohga pand-u nasihat” (2-maqolat), “Podshoning raiyatga husni rioyati bayonida” (4-maqolat). Lekin “Noumid podsho va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Sulaymon va dehqon hikoyati” (3-maqolat), “Faridun va ohu hikoyati” (7-maqolat), “Zolim podsho va rostgo‘y kishi hikoyati” (14-maqolat), “Yosh shahzoda va uning keksa dushmanlari hikoyati” (15-maqolat), “Jamshid va uning xos mahrami hikoyati” (18-maqolat), “Horun ar-Rashid va sartarosh hikoyati” (19-maqolat) kabi hikoyatlar boshqa maqolatlar ham ayni mavzudan ayri emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, muqaddima boblar hamda “Odam Atoning yaratilishi xususida” (1-maqolat), “Yaratilish bayonida” (8-maqolat), “Oxirzamon alomatlari bayonida” (10-maqolat), “Ibodat-u tajrid bayonida” (17-maqolat), “Oxirat ila yuzlashuv bayonida” (19-maqolat) va dunyo bilan bog‘liq maqolatlar, “Noumid podshoh va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Tavbabuzar zohid hikoyati” (9-maqolat), “Iso alayhissalom hikoyati” (10-maqolat), “Sohibnazar mo‘bad hikoyati” (11-maqolat), “Hoji va so‘fiy hikoyati” (13-maqolat), “Pir va murid hikoyati” (17-maqolat) kabi hikoyatlar asarning diniy-tasavvufiy asoslari ham mustahkamligidan dalolat beradi. “Nizomiy hayotda nima muqaddas-u nima fahsh, inson nima uchun intilmog‘i, nimani rad qilmog‘i kerak, degan savollarni o‘rtaga qo‘yar ekan, bu savollarga javob berishda Qur‘on suralariga murojaat qildi, hadislarni asos qilib oladi, o‘zining uzoq yillik hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqadi” [1,18].

Bu turkumning sharq adabiyotida paydo bo‘lishi juda ko‘p janrlarning, shakllarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. “Xamsa” dostonlarini o‘rganish bo‘yicha dunyo va o‘zbek adabiyotshunosligida juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan.

Biz tadqiqotimizda Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining Olimjon Bo‘riyev va Jamol Kamol tarjimalari hamda “Hayrat ul-abror”ni qiyosan o‘rgandik.

Avvalo ta’kidlash lozimki, har ikki tarjimonning ishi diqqatga sazovor. Ularning har ikkisi ham dostonni o‘z vazni – sare’da tarjima qilishga harakat qilgan.

**XULOSA.** “Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonlarininng qiyosiy tahlili bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotimizdan quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Dunyo she’riyatida, adabiyotida pand-nasihat ruhidagi asarlar – pandnomalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu dastlab barcha adabiyotlar uchun xos bo‘lgan. Xususan, Misr adabiyotida “Pxatotep o‘gitlari” bizgacha yetib kelgan eng qadimiylardan pandnomalar hisoblanadi.

2. Sharq mumtoz adabiyoti didaktikasi uchun asosiy manba Qur’oni karim bo‘ldi. Unda belgilab berilgan kishilarning yashash tarzi, atrof-muhit bilan munosabati, inson va inson, inson va dunyo, inson va ikki olam masalasi sharq donishmand shoirlari uchun dasturulamal bo‘ldi.

3. Nafaqat sharq, balki butun dunyo adabiyotini ilhomlantirgan Sa’diy Sheroziyining ikki o‘lmas didaktik asari ham maktablarda darslik sifatida o‘qitilgan, o‘zidan keyingi buyuklarga ilhom manbai bo‘lib kelgan.

4. Bu asar XX asrga qadar bizning maktablarda ham darslik sifatida o‘qilib kelingan. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jarayonida asar shu davrning ruhiga qayta moslanib millatni uyg‘otish, farzandlarga to‘g‘ri ta’lim berish jarayonida yana qaytadan ta’lim tizimiga “Turkiy guliston yoxud axloq” bo‘lib qaytarilgan .

5. Avvalo ta’kidlash lozimki, har ikki tarjimonning ishi diqqatga sazovor. Ularning har ikkisi ham dostonni o‘z vazni – sare’da tarjima qilishga harakat qilgan.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Эркинов С., Фанихонов М. Низомий Ганжавий. – Тошкент: “Фан”, 1992. -Б.18.

2. М.Қ.Мухиддинов. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: “Фан”, 1995. -Б.110.
6. Ҳайдар Хоразмийнинг Низомий “Махзан ул-асрор”ига муносабати. ЎТА -1974.- №2.-Б.2.-Б.13.
7. Faffarov Nodirbek. “Ҳайратул аброр”да Абдуллоҳ Муборак образи ва нафс талқини.-1998.-№4.-Б.18.
8. Karimova Nazira. Navoriy – mehnat kuychisi (“Ҳайратул аброр” достони бўйича).- 1965.-№1.-Б.48.
9. Низомий ва ўзбек адабиёти (Илмий анжуман материаллари). – Тошкент: Ислом университети, 2007;
10. Ражабова Буробия. Шахс хукуки ва адолат (“Ҳайрат ул-аброр” достонидаги “Шоҳ Фозий” хикояти мисолида).-2001.-№4.-Б.27.
11. Тўйчиев Уммат. “Ҳайрат ул-аброр” достонида лирик сюжет қисмлари ва қаҳрамон.- 2003.-№3.-Б.14.
12. Ҳабибулла Алимулла. Дидактик адабиётда панднома. ЎТА -1983.-№5.-Б.55.
13. Зайнуллин Абдулжамил. “Калила ва Димна” нинг номаълум туркий қўлёзма нусхаси (Қозонда XIX аср бошида татар тилида битилган нусхаси хақида. ЎТА -1984.-№1.-Б.63.
14. Ирисхожиева Соҳиба. Дидактиканинг поэтик поэтикаси. ЎТА -1972.-№5.- Б.60.
15. <http://nimadir.uz/kutubxona/kalila-va-dimna/>
16. <https://ziyouz.uz/ilm-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-fazlulloh-almaiyl-1852-1891/?lng=lat>

